



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 5 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 9, НОМЕР 5

LOOK TO THE PAST
VOLUME 9, ISSUE 5



ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ермегов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети


Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети


1. Diloram Babajanova O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLARI:ILM-FAN DARG‘ALARI TARIXDA VA HOZIR.....	5
2. Nilufar Dalibayevna Djurayeva XOTIN-QIZLARGA MUNOSABAT MASALASIDA SOVETLAR SIYOSATI: MANBALAR TAHLILI VA TARIXSHUNOSLIK MASALALARI.....	13
3. Наргиза Абдурахманова ЗАМОНАВИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА АБУЛ БАРАКОТ НАСАФИЙ АСАРЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ.....	30
4. Шерзод Таштурсунович Бахранов ЎЗБЕКИСТОН ССРДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК ФАНИНИ РИВОЖЛАНИШИ: ЮТУҚ ВА МУАММОЛАРИ.....	37
5. Ixtiyor Voxodir o‘g‘li Voxodirov TURKISTON HARBIY OKRUGI TOMONIDAN 1916-YILGI JIZZAX QO‘ZG‘OLONING BOSTIRILISHI VA UNING OQIBATLARI.....	47
6. Наргиза Кенжаева ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА ПРОСОПОГРАФИК МЕТОДНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ: ПОМИР РУС ТАДҚИҚОТЧИЛАРИНИНГ ЖАМОАВИЙ БИОГРАФИЯСИ (XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИ).....	53
7. Lola Yusupovna Samatova IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDAGI SOVET UCHUVCHI AYOLLAR BO‘LINMASI TO‘G‘RISIDA.....	66
8. Ismoil Alimbayevich Nurmetov O‘ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINI (BRM) AMALGA OSHIRISH STRATEGIYASI.....	72
9. Malika Xaydarova Shaxriddin qizi AMIR TEMURNING JANGLARDAGI HARBIY MAHORATI.....	78
10. Feruza Erkinovna Atajanova OLIIY TA‘LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR TENDENSIYALAR TAHLILI.....	83
11. Muborak Madrimovna Matyakubova XVI-XIX ASRLARDA XIVA XONLIGI BOZORLARIDA BOZORBOSHI, RAIS, MUHTASIB, SARROFLAR VA DALLOLLARNING FAOLIYATI VA HUQUQIY MAQOMI.....	89
12. Анварбек Муродович Омонов, Маъруфжон Нурулиевич Рўзиев КЎЛБУЛОҚ МАКОНИ ТОШ ИНДУСТРИЯСИНИНГ ТАҲЛИЛИГА ДОИР (ИЛК ПАЛЕОЛИТ ДАВРИ МАТЕРИАЛЛАРИ АСОСИДА).....	94



Ixtiyor Boxodir o'g'li Boxodirov,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti (PhD)

TURKISTON HARBIY OKRUGI TOMONIDAN 1916-YILGI JIZZAX QO‘ZG‘OLONING BOSTIRILISHI VA UNING OQIBATLARI

For citation: Ikhtiyor Bakhodirov. SUPPRESSION OF THE 1916 JIZZAKH UPRISING BY THE TURKESTAN MILITARY DISTRICT AND ITS CONSEQUENCES. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 5.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20082775>

ANNOTATSIYA

Maqolada 1916-yilda Turkistonda mustamlaka tuzumiga qarshi noroziliklar, qo'zg'olon va milliy ozodlik harakatlari ko'tarilishi, ularning kelib chiqish sabablari yoritilgan. Maqolada asosiy tadqiqot obyekti sifatida Turkistondagi xalq xarakatlarning asosiy markazi bo'lgan Jizzax qo'zg'oloni olingan. Qo'zg'olonning kelib chiqishi, asosiy qurolli qarshilik harakatlari, uni bostirish jarayonidagi qiyinchiliklar sababli mintaqadagi imperiya ma'muriyatining Turkiston harbiy okrug qo'shinlariga tayanishga majbur bo'lganligi tahlil etilgan. Mustamlaka qurolli kuchlarining turkistonliklarga qarshi shafqatsiz va shovinistik munosabati ochib berilgan.

Tayanch so'z va iboralar: mustamlaka, harbiy okrug, muntazam armiya, qo'zg'olon, rota, kazak, pulemyot, soldat, eskadron.

Баходиров Ихтиёр,
Доцент кафедры “Гуманитарные науки”
Ташкентского государственного
экономического университета (PhD)

ПОДАВЛЕНИЕ ДЖИЗАКСКОГО ВОССТАНИЯ 1916 ГОДА ТУРКЕСТАНСКИМ ВОЕННЫМ ОКРУГОМ И ЕГО ПОСЛЕДСТВИЯ

АННОТАЦИЯ

В статье исследуются протесты против колониального режима, восстание и национально-освободительное движение в Туркестане в 1916 году, причины их возникновения. В статье в качестве основного объекта исследования взято Джизакское восстание, которое было основным центром народных движений в Туркестане. Проанализированы происхождение восстания, основные движения вооруженного сопротивления, трудности в процессе его подавления, из-за которых имперская администрация в регионе была вынуждена опираться на войска Туркестанского военного округа.

Раскрыто жестокое и шовинистическое отношение колониальных вооруженных сил к туркестанцам.

Ключевые слова и выражения: колониальный режим, военный округ, регулярная армия, восстание, рота, казак, пулемет, солдат, эскадрон.

Ikhtiyor Bakhodirov,
Associate Professor of the Department
of Social Sciences (PhD)
at Tashkent State University of Economics

SUPPRESSION OF THE 1916 JIZZAKH UPRISING BY THE TURKESTAN MILITARY DISTRICT AND ITS CONSEQUENCES

ABSTRACT

The article examines the protests, uprisings, and national liberation movements against the colonial regime in Turkestan in 1916, as well as the reasons for their emergence. The main object of research in the article is the Jizzakh uprising, which was the main center of popular movements in Turkestan. The origin of the uprising, the main armed resistance movements, and the difficulties in its suppression led the imperial administration in the region to rely on the troops of the Turkestan Military District. The brutal and chauvinistic attitude of the colonial armed forces toward the Turkestanis is revealed.

Index Terms: colonial regime, military district, regular army, rebellion, company, cossack, machine gun, soldier, squadron.

1. Dolzarbligi:

So‘nggi yillarda dunyodagi qator yetakchi ilmiy tadqiqot markazlarida XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tomonidan Turkistonda olib borilgan harbiy harakatlar, o‘lka hududining istilochilar tomonidan bosib olinib, mustamlaka tizimining o‘rnatilishi va uning mustahkamlanishi, shu jumladan, Rossiya imperiyasi qurolli kuchlarining Turkistondagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, O‘rta Osiyoda Xitoy, Afg‘oniston, Eron, Buyuk Britaniya va Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi harbiy-siyosiy raqobat, ularning mohiyati va oqibatlari kabi masalalar o‘rganilmoqda. Bu borada Turkiston o‘lkasida mustamlakachilik tizimining o‘rnatilishi, uni mustahkamlash va milliy ozodlik harakatlarini bostirishda asosiy ishtirokchilardan bo‘lgan Turkiston harbiy okrugi tarixini o‘rganish tobora dolzarblik kasb etmoqda. Zero, Rossiya imperiyasi tomonidan Turkistonda harbiy okrug tizimi joriy etilib, muntazam armiyaning tashkil qilinishi, ularning o‘lkaning harbiy va ijtimoiy-siyosiy tarixida tutgan roli alohida obyekt sifatida o‘rganilmagan.

2. Metodlar va o‘rganilganlik darajasi:

Tadqiq etilayotgan davr tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan adabiyotlarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish maqsadga muvofiqdir: 1) Rossiya imperiyasi davrida chop etilgan manba va adabiyotlar; 2) sovet davrida nashr etilgan adabiyotlar, risola va maqolalar; 3) mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar; 4) xorijiy adabiyotlar. Rossiya imperiyasi hukmronligi yillari va sovet davrida yaratilgan asarlarda Turkiston harbiy okrugi tarixiga doir masalalar bir tomonlama mavjud tuzum manfaatlari nuqtai nazaridan talqin qilingan. Mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqotlarda ham harbiy okrug faoliyati, uning Turkiston o‘lkasida mustamlakachilik tizimini mustahkamlashdagi roli va chegaradosh mamlakatlar bilan munosabatlarda imperiya manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan faoliyati yetarli darajada yoritilmadi. Shuning uchun ham mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotni amalga oshirish dolzarb hamda ilmiy-amaliy ahamiyatga molikdir. Tadqiqot ishini olib borishda muammoviy, miqdoriy va qiyosiy-tarixiy tahlil, tarixiy xronologik, tizimlilik kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

3. Tadqiqot natijalari:

Malumki 1914-yil imperialistik davlatlar o‘rtasida Birinchi jahon urushi boshlanadi. Rossiya imperiyasi ham urush ishtirokchilaridan biriga aylangan. Bu davrda turkistonliklar armiya safiga olinmagan bo‘lsada urushning iqtisodiy qiyinchiliklari qaram o‘lkalar zimmasiga ham yuklana

boshlanganligi sababli qiyin ahvolga tushib qoladi. 1914-1916 yillarda o'lkadan urush ehtiyojlari uchun juda ko'p miqdorda paxta, paxta yog'i, go'sht, baliq, ot va tuyalar, ko'p miqdorda oziq-ovqat olib ketiladi. Narx-navo va soliqlar ham keskin ko'tariladi. Bu davrda markazdan g'alla kelishida uzulishlar boshlanib o'lkada ocharchilik holatlari kuzatila boshlaydi.

O'lkadagi shunday qiyin vaziyatda Nikolay II 1916-yil 25-iyunda Kavkaz, Astraxan, Sibir va O'rta Osiyodagi 19-43 yoshdagi erkak aholi uchun "Imperiyadagi rus bo'lmagan erkak aholini harakatdagi armiya hududida mudofaa inshootlari, harbiy aloqa yo'llari qurish va davlat mudofaasi uchun zarur boshqa har qanday ishlarga jalb qilish haqida" farmon e'lon qiladi va bu Turkistonda mustamlaka tuzumiga qarshi qo'zg'olon ko'tarilishiga sabab bo'ladi[1].

O'lkada qo'zg'olonlar boshlanishiga mehnat safarbarligiga chaqiriluvchilar ro'yxatlarini shakllantirish vaqtida keng avj olgan poraxo'rlik va tanish-bilishchilik holatlari ham katta turtki bo'lgan. O'ziga to'q oilalar pora orqali safarbarlikdan chetda qolib kambag'allarning yagona boquvchilari ro'yxatga kiritilishi ko'p kuzatilgan. Bu holat oddiy xalqning qaxr-g'azabini yanada oshirgan. Turkiston rayon muxofaza bo'limi boshlig'i yordamchisining 20-iyuldagi hisobotida mansabdorlar pora olishdan to'xtamayotganligini, quyi bosqichdagi mansabdorlar tomonidan olinayotgan pora summasi millionlab rubl bilan o'lchanishini qayd etgan[2].

Imperator farmonga binoan Turkiston o'lkasidan 250 000 kishini (erkak aholining 8%)[3] mardikorlikga olish rejalashtiriladi. 30-iyunda okrug bosh qo'mondoni general Yerofeyev ro'yxatlarni tuzishni boshlash haqida viloyat gubernatorlariga telegramma yuboradi. Ro'yxat tuzishda birinchi navbatda 1885-1897 yillar oralig'ida tug'ilgan erkaklarni olishga e'tibor qaratish lozimligi ta'kidlanadi[4].

O'lkada mardikorlikga qarshi dastlabki g'alayonlar 1916-yil 4-iyulda Samarqand viloyatida boshlanadi. Samarqand viloyatidagi eng katta qo'zg'olon Jizzax uyezdida bo'lib o'tgan. Uyezdadan 10531 kishini mardikorlikga olinishi belgilangan edi[5]. 2-iyul kuni ma'muriyat Jizzaxda podsho farmonini e'lon qilib mardikorlar ro'yxatini tuzish uchun 10 kun muhlat beradi. 5-iyuldan Jizzax uyezdida dastlabki g'alayonlar boshlanadi. 13-iyulda Jizzax shahrida qo'zg'olon boshlanib oqsoqol Mirzayor Xudoyorov, qo'zg'olonchilarni tinchlantirish uchun Eski shaharga kelgan Jizzax uyezdi boshlig'i polkovnik Rukin, shahar politsiya pristavi kapitan Zotoglov, 732-Saratov drujinasi askari Grishenko, uyezd boshqarmasi tarjimoni Zokirjonovlar o'ldiriladi[6]. 35 nafar askar bilan yordamga kelgan uyezd boshlig'i yordamchisi podpolkovnik Afanasiyev qo'zg'olonchilarni o'qqa tutadi. Yomon qurollangan qo'zg'olonchilar 11 kishini qurbon berib ortga chekinadilar[7]. Ammo Afanasiyev Jizzaxdagi juda oz sonli askar va kazaklar bilan qo'zg'olonni bostira olmaydi.

Tez orada qo'zg'olon butun Jizzax uyezdiga yoyiladi. Jizzaxlik Nazirxo'ja eshon va Forishlik Abdurahmon jevachilar qo'zg'olonga rahbarlik qiladilar. Qo'zg'olonchilar Yangi shaharga, shahar tashqarisidagi Obruchevo, Lomakino va Jizzax temiyo'l stansiyasilariga hujum qiladilar. Telegraf simlari va temiyo'l tarmog'i buzib tashlanadi. 16-iyulgacha Jizzaxda temiyo'l aloqasi uzib qo'yiladi. 14-16 iyulda Jizzax uyezdidagi Sintob, Bog'don, Nakrut, Chashmaob, Yangiqo'rg'on, Rabot, Sangzor, Qoratosh, Zomin hududlari ham qo'zg'olonchilar qo'liga o'tadi[8]. Qo'zg'olon vaqtida Jizzax uyezdida rus aholisidan 83 kishi halok bo'lgan, 20 kishi yaralanadi, 70 ga yaqin kishi esa asir olinadi[9]. Qo'zg'olonchilar tomonidan Zomin uchastka pristavi Sobolev ham o'ldiriladi[10].

Jizzax qo'zg'oloni okrug qo'mondonligini favqulodda choralar ko'rishga majbur qiladi. 13-iyul kuni Jizzaxga Samaranddan 90 kishilik drujinachilar rotasi, 14-iyulda Orenburg kazaklari yuzligi[11], shu kuni Toshkentdan polkovnik Vladislavlev umumiy qomondonligida 732-Saratov drujinasining 2-rotasi, sapyorlar vzvodi va 32-yengil batareyadan podpolkovnik Kvashin boshchiligidagi 4 ta to'p yuboriladi[12]. 14-iyulda har ehtimolga qarshi viloyat markazi mudofaasini mustahamlash uchun Samarqandga Orenbug kazaklari yarim yuzligi va 3 ta zaxiradagi piyodalar rotasi (jami 210 askar) keltiriladi. Juma temiyo'l stansiyasini qo'riqlash uchun 1 ta rota ajratiladi[13]. Jazo otryadlari Jizzaxga 15-iyul kun oxirida etib keladi. Jizzaxga viloyat gubernatori general Likoshin ham keladi. Ammo polkovnik Vladislavlev va podpolkovnik Vodopyanov boshchiligidagi harbiy qismlar Jizzax uyezdida tichlik o'rnatishga kuchlari etmaydi[14]. Natijada okrug qo'mondoni Yerofeyev 16-iyulda Jizzaxga sobiq Xo'jand uyezdi boshlig'i polkovnik Ivanov-

Rinov (1869-1925) qo'mondonligida 13 ta rota, otlq artilleriya batareyasi (6 to'p), 3 ta sapyor rotasi va 3 ta kazaklar yuzligi: jami 2500 askardan iborat juda katta jazo otryadini yuboradi[15]. 1916-yil 17-iyulda esa Yerofeyev buyrug'i bilan Turkiston general-gubernatorligida harbiy holat joriy etiladi[16].

Polkovnik Ivanov zimmasiga Jizzax shahrini qayta egallash, general Likoshin ko'magida qo'zg'olonning barcha tafsilotlariga oydinlik kiritish, temiryo'l va telegraf aloqasini tiklash, polkovnik Rukin va kapitan Zotoglovning qotillarini topish va qo'zg'olon rahbarlarini qo'lga olish vazifasi yuklatiladi. Ionov dastlab Jizzax eski shahar qismida tinchlik o'rnatib qozg'olonchilarni zararsizlantiradi. So'ngra 6 ta kichik harbiy otryadlar tuzib ularni Juzzax uyezdining turli volostlariga qo'zg'olonchilarga qarshi yuboradi. Kapitan Yefimovning 1-otryadi Zomin va Sangzor oralig'iga, podpolkovnik Vodopyanovning 2-otryadi Zomin va Rabotga, yasovul Donskiyning 3-otryadi Bog'danga, podpolkovnik Baxtarovning 4-otryadi Milyutinskaya va Sangzor stansiyalariga, podpolkovnik Afanasiyev Abdurahmon jevachiga qarshi yuboriladi. 6-otryad boshlig'i polkovnik Vladislavlevga esa Eski shaharda nazoratni saqlab turish vazifasi topshiriladi. Jizzax shahar temiryo'l stansiyalarining xavsizligini taminlash uchun 732-Saratov drujinsidan 1 ta rota ajratiladi[17]. Jazo ekspeditsiyasi faoliyati 26-27 iyulgacha davom etadi. Qo'zg'olonchilar qo'lidagi 62 kishi ozod etiladi. Qo'zg'olon rahbarlaridan 12 kishi qo'lga olinadi[18]. 25-iyul kuni Ivanov Turkiston okrugining yangi bosh qo'mondoni general Kuropatkinga qo'zg'olon to'la bostirilganligini ma'lum qiladi. Jizzax uyezdida jamoat tartibi to'la tiklanadi. Jizzax qo'zg'olonini bostirish vaqtida Ivanov otryadidan 1 ta kazak yarador bo'lib 1 ta oddiy askar va 4-Orenburg polkidan kazak Dmitriy Nevzorov halok bo'ladi[19].

Jizzax uyezdida jazo otryadlari juda katta xunrezliklar sodir qilgan. Ivanov jazo ortyadlariga aholiga qarshi qurol qo'llash, uylarga va xo'jalik asbob-uskunalariga o't qoyish yoki buzib tashlash, mavjud g'allani tortib olishga ruxsat beradi. Askarlarning mahalliy ayollarga zo'ravonlik qilishlariga ham ko'z yumiladi. Omon qolgan qo'zg'olonchilar tog'larga yashirinadi. Qo'zg'olonchilarni qo'lga tushura olmagan okrug askarlari ularning uylariga ommaviy o't qo'ya boshlaganlar. Kattaqo'rg'on uyezdi boshlig'i polkovnik N.M. Ross "qo'zg'olonda qatnashgan jinoyatchilarni qidirib topgadan ko'ra, ularning uylariga yoppasiga o't qo'ymoq maqul"[20] deya Ivanovning tashabbusini qo'llab-quvvatlaydi.

7-avgust kuni Jizzax Eski shahar aholisi shahardan Qili cho'liga badarg'a qilinadi. Okrug qo'mondoni Kuropatkin Jizzaxliklarning cho'lga surgun qilinishini quyidagicha izohlagan: "Biz hammangizni osib o'ldirishimiz kerak, lekin boshqalarga o'rnak bo'lishi uchun yashashingizga ruxsat beramiz"[21]. Aholining surgun qilinishida ham ko'plab vaxshiyliklar sodir bo'ladi. Avval odamlarning bor budi tortib olinadi. Ular timinsiz yugurtirib borilgan. Yo'lda soldatlar tomonidan yoshi katta erkaklar va yugurishdan bosh tortganlar ayovsiz kaltaklangan, ayrimlari otib tashlangan. Chaqaloqlar chanqoq va suvsizlikdan yo'lda halok bo'ladi[22]. 1916-yil avgustda Davlat Dumasining Turkistonni taftish qilish komissiyasi azosi Kerenskiy Jizzaxda harbiylar amalga oshirgan xunrezliklarni tan olib "Jizzaxning vayronalarini borib ko'rdim. Men ikki frontda bo'lganman, lekin bunaqasini ko'rmaganman" deb takidlaydi[23]. 25-noyabrda harbiy sud Jizzax qozg'oloni ishtirokchilaridan 34 kishini o'limga hukm qiladi. Keyinchalik 4 kishi 12 yilga mehnat lageriga, 27 kishi 4 yilga ozodlikdan mahrum etiladi. 3 kishi qatl etiladi[24].

1916-yil qo'zg'olonlarini bostirishda Turkiston harbiy okrugi juda katta qiyinchiliklarga uchraydi. THO qo'shinlarining Birinchi jahon urushi frontlariga olib ketilishi sababli okrug hududida juda oz sonli harbiy qismlar qolgan edi holos. Ularning o'rnini to'ldirish uchun harbiy vazirlik tomonidan 1914-yil 14-oktabrda Simbir, Saratov, Penzen va Samara hududlaridagi ko'ngillilardan general K.O.Kurganov (1914-1917) qo'mondonligida 6-davlat militsiya korpusi tashkil etiladi va Turkiston harbiy okrugi hududiga yuboriladi.

Umumiy hisobda 1916-yilda Turkistondagi qo'zg'olonlarni bostirish uchun jahon urushi frontlaridan 14.5 ta batalyon, 33 ta kazaklar yuzligi, 42 ta to'p va 69 ta pulemyot safarbar etilgan[25]. Markazdan okrug hududiga qo'shimcha harbiy qismlar olib kelingach xalq harakatlari bostirilib, qurol kuchi bilan 1916-yil oxirigacha front orti ehtiyojlari uchun Turkistondan 92 423 kishini safarbar etishga erishilgan[26].

Qo'zg'olon vaqtida okrug va general-gubernatorlik sezilarli yo'qotishlarga uchraydi. Kuropatkinning ko'rsatmalariga ko'ra 1917-yil 25 yanvargacha okrug askarlaridan 97 kishi halok bo'lib, 86 nafari yaralanadi, 76 tasi bedarak ketadi. Masalaning ikkinchi tomonini ham esdan chiqarmaslik lozim. 1914-1917 yillarda Turkiston aholisi 1 230 000 kishiga kamayib ketadi. Bu yo'qotishlar bevosita 1916-yildagi qo'zg'olonlarning qattiqqo'llik bilan bostirilishiga bog'liq edi[27].

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda Turkistonda mardikorlikga olinishga qarshi boshlanib so'ngra milliy ozodlik harakatlariga aylanib ketgan xalq qo'zg'olonlari davrida o'lkada mustamlaka boshqaruvining mavjudligi o'lkadagi harbiy-xalq boshqaruviga emas Turkiston harbiy okrugi qo'shinlariga bog'liqligi bilinib qoladi. Buni ayniqsa Jizzax uyezdi, Yettisuv va Kaspiyorti viloyatlaridagi halq xarakatlari davrida ko'rish mumkin. THO qo'shinlarining urush frontlariga safarbar qilinishi tufayli deyarli qurolli kuchlarsiz qolib ketgan o'lkadagi mustamlaka ma'muriyati barcha viloyatlarga yoyilib ketgan qo'zg'olonlarni oldini olib ularni bostirishda juda katta qiyinchiliklarga uchraydi. Natijada qo'zg'olonlarni avvalgidek tezlik bilan bostirishning imkoni bo'lmagan. 1916-yildagi milliy ozodlik harakatlari mustamlaka hukumatini qattiq sarosimaga solgan va ularga Turkiston xalqlarining ozodlik va mustaqillik uchun kurash tuyg'ulari hali ham so'nmaganligini ko'rsatib beradi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O'zMA, I-1-fond, 31-ro'uxat, 100-yig'ma jild, 144-varaq.
2. Усенбаев К. 1916: героические и трагические страницы. – Бишкек: Шам, 1997. – С. 62.
3. J.Sahadeo. Russian colonial society in Tashkent, 1865-1923. – Bloomington, 2007. – P. 178.
4. Восстание 1916 года в Туркмении (Документы и материалы). – Ашхабад, 1938. – С. 27.
5. Зиёева Д. Туркистон миллий озодлик ҳаракати. – Т., Фафур Ғулом, 2000. – Б. 137.
6. Турсунов Х. Ўзбекистонда 1916 йил халқ қўзғолони. – Тошкент, 1966. – Б. 59.
7. Шестаков А.В. Джизакское восстание 1916 г. // Красный архив. Том 5. № 60. – Москва, 1933. – С. 65.
8. Cloe Drieu, A.Morrison, A.Chokobaeva. The Central Asian revolt of 1916. – Manchester, 2020. – P. 83-84.
9. Richard A. Pierce. Russian Central Asia. A study in colonial rule (1867-1917). – Los Angeles, 1960. – P. 276.
10. Галузо П. Восстание 1916 г. В Средней Азии // Красный архив. Том 3. №34. – Москва, 1929. – С. 67.
11. O'zMA, I-1-fond, 31-ro'uxat, 1135-yig'ma jild, 33-varaq.
12. Восстание 1916 года в Средней Азии и Казахстане. Сборник документов. – Москва, 1960. – С. 164.
13. O'zMA, I-1-fond, 31-ro'uxat, 1135-yig'ma jild, 33-varaq.
14. Шестаков А.В. Джи закское восстание 1916 г. // Красный архив. Том 5. № 60. – Москва, 1933. – С. 79-80.
15. Chokobaeva A. Frontiers of violence: state and conflict in Semirechye, 1850-1938. – Canberra, 2016. – P. 52.
16. O'zMA. I-fond, 31-ro'uxat, 1143-yig'ma jild. 14-varaq.
17. Шестаков А.В. Джизакское восстание 1916 г. // Красный архив. Том 5. № 60. – Москва, 1933. – С. 82,90.
18. Cloe Drieu, A.Morrison, A.Chokobaeva. The Central Asian revolt of 1916. – Manchester, 2020. – P. 88.
19. O'zMA, I-1-fond, 31-ro'uxat, 1100-yig'ma jild, 246-247-varaqlar.

20. Мажид Ҳасаний. Юрт бўйнидаги қилич ёки истило. – Тошкент. 1997. – Б. 45.
21. Richard A. Pierce. Russian Central Asia. A study in colonial rule (1867-1917). – Los Angeles, 1960. – P. 284.
22. Зиёев Ҳ. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукумронлигига қарши кураш. – Тошкент. – Б. 419-420.
23. О‘зМА, I-1-fond. 1-ro‘ухат. 1100-yig‘ma jild. 289-varaq.
24. Cloe Drieu, Alexander Morrison, A.Chokobaeva. The Central Asian revolt of 1916. – Manchester, 2020. – P. 88.
25. Глушенко Е. Россия в Средней Азии. Завоевания и преобразования. – М., 2010. – С. 338.
26. Айрапетов О.Р. Участие Российской империи в Первой мировой войне – 1916. – Москва, 2015. – С. 255.
27. Richard A. Pierce. Russian Central Asia. A study in colonial rule (1867-1917). – Los Angeles, 1960. – P. 293.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000